

## LINGVOKULTUROLOGIYA MAKTABLARI

**Gulsanam To‘lanboyeva**

FarDu, Chet tillari, o‘qituvchi

**Dilshoda Mirzayeva**

FarDu, Chet tillari, PhD

### ANNOTATSIYA

*Ushbu maqolada lingvokulturologiya fani va muloqot jarayonlarining qisqacha paydo bo‘lishi, shakllanishi va rivojlanish jarayonlari keltirib o‘tilgan. Shu jumladan, lingvokulturologiyaning Moskvada paydo bo‘lgan maktablari haqida qimmatli fikrlar yuritilgan.*


**Kalit so‘zlar:** *Lingvokulturologiya, til, lingvokulturologiya maktablari.*

### Kirish

Lingvokulturologiya fani paydo bo‘lganiga ko‘p bo‘lmasa-da, ko‘plab muhokamalarga va muhokasalarga sabab bo‘layotgan, munozarali soha hisoblanib, ushbu munozaralarda ma‘lum bir asoslarga tayaniladi. Masalan, lingvokulturologiya sohasida Moskva maktablari shunday asoslardan biri sanaladi.


### Asosiy qism

Lingvokulturologiya ya‘ni lingvo tilshunoslik fani inson, til va madaniyatning uchligi ekani avvalgi tadqiqotlardan barchaga ma‘lum. Avvalo, lingvokulturologiya kommunikativ jarayonlarni tahlil qiladi. Kommunikativ jarayonlar insonlarning u yoki bu ma‘lumotlarni bir – biriga ulashish, yangiliklardan boxabar qilish uchun vujudga kelgan va shunday bo‘lib davom etmoqda. Kommunikatsiya ya‘ni aloqalar zamon va makon tanlamaydi, insoniyat yaralgandan beri qayerda bo‘lishidan qat‘i nazar ular mudom muloqotda. Masalan, dastlab bir-birlarini xavf-hatardan ogoh etish uchun yoki qayerda o‘lja borligini aytish bildirish uchun qo‘llanilgan. Ushbu muloqot jarayonlari lingvokulturologiya fani tomonidan tadqiq qilinadi. Bu tadqiqotlar davrlar mobaynida sayqal topib shakllangan bo‘ladi, nafaqat muloqot jarayonlari balki lingvokulturologiya fani ham ushbu asrlar silsilasida sayqal topgan. Ushbu fan rivoji mobaynida lingvokulturologiya fanining bir nechta maktablari paydo bo‘lgan, masalan, Moskva misolida oladigan bo‘lsak. XX asr ohirlariga keib Moskvada lingvokulturologiyaning 4 ta maktabi shakllangan:



1. Yu.Yu. Stepanov maktabining maqsadi madaniyatning davomiyligini diaxron nuqtayi nazardan tasvirlashdir. Yo‘nalish turli davrlarda yaratilgan matnlar yordamida, ya’ni tilning faol egasi emas, balki tashqi kuzatuvchisi sifatida ish ko‘radi.<sup>1</sup>

Stepanov maktabi tilni ayni hozirgi dinamik jihatdan ya’ni sinxron aspektidan emas, balki diaxron holda o‘rganiladi. Til paydo bo‘lib rivojlanib, turli hil o‘zgarishlarga uchrab, sayqal topib, jilolanib rivojlanadi yoki lotin, qadimgi yunon tillari kabi so‘zlovchilarini yo‘qotib o‘lik tilga aylanadi. Shu bilan birgalikda, ushbu tanlangan tilni egasi sifatida emas, balki chetdan turib neytral pozitsiyada tahlil qilinadi.



Ushbu strelka ko‘rinishidagi infografika yordamida ingliz tilining am’lum bir vaqt davomida 3 ko‘rinishda:

- Qadimgi
- O‘rta

<sup>1</sup> Usmanova Sh. Lingvokulturologiya. (darslik) – T.: Toshkent, 2019. – 248. B.24

- Zamonaviy ingliz tili ko‘rinishida rivoj topdi va birinchi raqamli jahin tiliga aylandi. Biz esa ushbu tilni tashqi kuzatuvchi sifatida tahlil qilmoqdamiz, chunki ingliz tili bizning ona tilimiz emas.

2. N.D. Arutyunova maktabi turli xalqlar va davrlarga oid matnlardagi umummadaniy terminlarni tadqiq etadi. Mazkur madaniy terminlar ham tilning faol egasi emas, balki tashqi kuzatuvchisi nuqtayi nazaridan o‘rganiladi.<sup>1</sup> Umummadaniy tushunchalar faqatgina bir millatga ya‘ni: o‘zbek, ingliz yoki rus millatiga emas balki butun dunyo millatlariga tegishli tushunchalar hisoblanadi. Katta insonlarga hurmat, kichiklarga izzat, ayol-qizlarga ehtirom ko‘rsatish kabilar har bir tilde mavjud ammo turfa tillarda har xil usulda qo‘llaniladi.

3. V.N. Teliya maktabi Rossiyada va xorijda frazeologizmlarning lingvokulturologik tahlil qilish bilan tanilgan. V.N.Teliya va uning shogirdlari lisoniy mohiyatlarni jonli til egasining refleksi nuqtayi nazaridan tadqiq qilishadi. Ya‘ni bu madaniyat semantikasini bevosita til va madaniyat subyekti orqali egallashga qaratilgan yo‘nalishdir.<sup>2</sup>

Teliya va uning izdoshlari turli xil tillarni qiyosiy va chog‘ishtirma usullarda tahlil qilinadi. Bir til oilasiga mansub va mansub bo‘lmagan tillarda ham ma‘nosi yaqin iboralar, tayyor til birliklari bo‘lishi mumkinligini tahlil qilganlar. Masalan o‘zbek tilidagi “tuyaning dumi yerga tekkanda” yoki ingliz tilidagi “when pigs fly” iboralari. Turkey tilli mintaqalarda tuyadan ko‘p foydalanilsa, ingli ztilida so‘zlovchi va ko‘plab yevropa mamlakatlarida cho‘chqa keng foydalaniluvchi hayvon sanaladi.

4. V.V. Vorobyev, V. M. Shaklein maktabi. Ular Ye.M.Vereshchagin va V.G.Kostomarovlarning ta‘limotlarini rivojlantirishdi.<sup>3</sup> Bu ushbu lingvokulturologiya maktablari bizlarning jonli tilimizda namoyon bo‘luvchi moddiy va madaniy xususiyatlarni tahlil qiladi.

### Foydalanilgan adabiyotlar

1. Usmanova Sh. Lingvokulturologiya. (darslik) – T.: Toshkent, 2019. – 248.
2. Воробьев В.В. Лингвокультурология (теория и методы): монография. – М.: Изд-во РУДН, 2016.
3. Yusupova, S. (2022). ИЖТИМОЙ ГУРУХЛАРДА ХУРМАТ КАТЕГОРИЯСИ ИФОДАЛАШ. Science and innovation, 1(B5), 350-352.
4. G. To‘lanboyeva, & S. Yusupova (2022). LINGVOKULTUROLOGIYA O‘RGANILISH TARIXI. Science and innovation, 1 (B6), 540-543.

<sup>1</sup> Usmanova Sh. Lingvokulturologiya. (darslik) – T.: Toshkent, 2019. – 248. B.24

<sup>2</sup> Usmanova Sh. Lingvokulturologiya. (darslik) – T.: Toshkent, 2019. – 248. B.24

<sup>3</sup> Usmanova Sh. Lingvokulturologiya. (darslik) – T.: Toshkent, 2019. – 248. B.24